



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026
ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.2).

ISSN 2181-2179
DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ)



**MUASSIS:
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK
UNIVERSITETI**

“Kriminologiya va jinoiy odil sudlov” ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2021-yil 18-martda 1160-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Ushbu jurnal O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas‘ul:
O. Choriyev

Muharrirlar:
Y. Yarmolik, M. Sharifova, Sh. Beknazarova, E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, E. Sharipov, X. Yuldasheva.

Musahhih:
R. Yunusova

Texnik muharrir:
U. Sapayev
Dizayner:
D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.
Veb-sayt: www.ccj.tsul.uz
E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1386.

Nashriyot litsenziyasi
№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2026-yil 19-iyunda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 22,5.
Adadi: 100. Buyurtma: № 70.

Bosmaxona litsenziyasi
29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY’ATI

BOSH MUHARRIR

Q. Abdurasulova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

Y. Kolenko – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

D. Bazarova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

Sh. Xaydarov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi mudiri o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI A‘ZOLARI

M. Rustambayev – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor

A. Otajonov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

O. Mahkamov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi dotsent v.b., yuridik fanlar doktori

N. Salayev – O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

S. Niyozova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi professori, yuridik fanlar doktori

V. Davlyatov – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti direktorining o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

A. Baratov – Toshkent davlat yuridik universiteti Kriminalistika va sud ekspertizasi sho‘basi mudiri, yuridik fanlar nomzodi

D. Musayev – Bojxona institutining Umumhuquqiy fanlar kafedrasini boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

I. Nikonov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi boshqarma boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

N. Hojiyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi dotsenti v.b.

P. Xojabekov – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish sho‘basi o‘qituvchisi, yuridik fanlar nomzodi

D. Nurumov – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud hokimiyati, advokatura va huquqni muhofaza qiluvchi organlar sho‘basi professori v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori



**УЧРЕДИТЕЛЬ:
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Научно-практический журнал «Криминология и уголовное правосудие» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 18 марта 2021 года с удостоверением № 1160.

Журнал создан при сотрудничестве с Правоохранительной академией Республики Узбекистан.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Е. Ярмолик, М. Шарифова, Ш. Бекназарова,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева, Э. Шарипов,
Х. Юлдашева.

Корректор:
Р. Юнусова

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.

Тел.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Факс: (0371) 233-37-48.
Веб-сайт: www.ccj.tsul.uz
E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1386.

Издательская лицензия от
29.11.2023, № 174625.

Журнал передан в типографию
18.06.2026.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 22,5. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 70.

Лицензия типографии от
№ 174626, 29.11.2023.

Отпечатано в типографии
Ташкентского государственного
юридического университета.
100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

К. Абдурашулова – профессор сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Е. Коленко – первый заместитель начальника Правоохранительной академии Республики Узбекистан

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Д. Базарова – заведующая сектором уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Ш. Хайдаров – заместитель заведующего сектором уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

М. Рустамбаев – начальник Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

А. Отажонов – профессор сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

О. Махкамов – и. о. доцента сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Н. Салаев – проректор Академии правосудия Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

С. Ниёзова – профессор сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

В. Давлатов – заместитель директора Института парламентских исследований при Законодательной палате Олий Мажлиса Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

А. Баратов – заведующий сектором криминалистики и судебной экспертизы Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук

Д. Мусаев – начальник кафедры общеправовых дисциплин Таможенного института, доктор философии по юридическим наукам, доцент

И. Никонов – начальник управления Администрации Президента Республики Узбекистан, доктор философии по юридическим наукам

Н. Хожиев – и. о. доцента сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета

П. Хожабеков – преподаватель сектора уголовного права, криминологии и противодействия коррупции Ташкентского государственного юридического университета, кандидат юридических наук

Д. Нурумов – и. о. профессора сектора судебной власти, адвокатуры и правоохранительных органов Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

**FOUNDER:
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

The scientific-practical journal "Criminology and Criminal Justice" was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on March 18, 2021, with certificate No. 1160.

This journal was founded in cooperation with the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:
O. Choriev

Editors:
E. Yarmolik, M. Sharifova, Sh. Beknazarova, E. Mustafaev, K. Abduvaliyeva, E. Sharipov, Kh. Yuldasheva.

Proofreader:
R. Yunusova

Technical editor:
U. Sapaev

Designer:
D. Rajapov

Editorial office address:
100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.

Phone: (0371) 233-66-36,
233-41-09.

Fax: (0371) 233-37-48.

Website: www.ccj.tsul.uz

E-mail: criminologyjournal@tsul.uz

Subscription index: 1386.

Publishing license
№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 18.06.2026.
Paper size: A4. Cond.p.f: 22,5.
Units: 100. Order: № 70.

Printing house license
№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD

EDITOR-IN-CHIEF

Q. Abdurasulova – Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Y. Kolenko – First Deputy Head of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF

D. Bazarova – Head of the Department of Criminal Procedural Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

Sh. Khaydarov – Deputy Head of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

M. Rustambayev – Head of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

A. Otajonov – Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

O. Mahkamov – Acting Associate Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

N. Salaev – Deputy Rector of the Academy of Justice of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

S. Niyozova – Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

V. Davlyatov – Deputy Director of the Institute of Parliamentary Research under the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor

A. Baratov – Head of the Department of Criminalistics and Forensic Examination of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

D. Musaev – Head of the Department of General Legal Sciences of the Customs Institute, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

I. Nikonov – Head of a Department of the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

N. Hojiyev – Acting Associate Professor of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law

P. Khojabekov – Lecturer of the Department of Criminal Law, Criminology and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law, Candidate of Legal Sciences

D. Nurumov – Acting Professor of the Department of Judiciary, Advocacy and Law Enforcement Agencies of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law



MUNDARIJA

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

Hakimov Komil Baxtiyarovich

GIYOHVANDLIK VOSITALARI YOKI ULARNING ANALOGLARI BILAN
QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALA QILGANLIK UCHUN JINOIY
JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI11

Abzalova Xurshida Mirziyotovna

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT HUQUQIDA EVTANAZIYA:
IJTIMOIY-HUQUQIY, AXLOQIY VA JINOYAT-HUQUQIY JIHATLAR21

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich

JINOYAT HUQUQIDA SABABIY BOG'LANISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI30

Fazilov Farxod Maratovich

PUL MABLAG'LARINI LEGALLASHTIRISH (YUVISH) JINOYATI SUBYEKTIV
BELGILARINING JINOYAT-HUQUQIY TAHLILI44

Karaketova Dilnoza Yuldashevna

YURIDIK SHAXSLAR JINOYAT SUBYEKTI SIFATIDA57

Matviyenko Irina Aleksandrovna, AllahRakha Naim

O'ZBEKISTONDA KIBERTA'QIBNING HUQUQIY KO'RINMASLIGI:
SUD QARORLARINI TAHLIL QILISH69

Jumaniyozova Zarnigor Maxammadi qizi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSIDA ODAM SAVDOSI UCHUN
JAVOBGARLIK EVOLYUTSIYASI81

Utayev Xusniddin Xurramovich

RAQAMLI FIRIBGARLIKDA QASD, MOTIV VA JINOYAT SUBYEKTINING
JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI92

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

Mamadaliyev Umid Yo'ldashevich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT PROTSESSIDA EKSTRADITSIYA
INSTITUTINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH VA AMALGA OSHIRISHNING
ZAMONAVIY MUAMMOLARI101

Karimov Abdumalik Abdumutal o'g'li

YOSHLAR ORASIDA EKSTREMIZM BILAN BOG'LIQ JINOYATLARGA
QARSHI KURASHISHNING KRIMINALISTIK USULLARINI RIVOJLANTIRISH
BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI110

Fatullayev Shodmonbek Madatovich

JINOYAT ISHIDA EKSPERTIZA TAYINLASH TARTIBI VA UNGA QO'YILADIGAN

PROTSESSUAL TALABLAR 119

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

Musayev Djamaliddin Kamalovich

XALQARO HAMKORLIK GIYOHVANDLIK VOSITALARINING NOQONUNIY

AYLANISHIGA QARSHI KURASHISH ASOSI SIFATIDA 133

12.00.15 – KRIMINOLOGIYA

Abdurasulova Kumrinisa Raimkulovna, Davranov Xusniddin Baxranovich

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING KORRUPTSIYAVIY JINOYATLAR

SODIR ETISH SABABLARI VA ULARGA IMKON BERGAN SHART-SHAROITLAR 144

Niyozova Salomat Saparovna

O'Z JONIGA QASD QILISHNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNGA IMKON

BERGAN SHART-SHAROITLARIGA DOIR ILMIY YONDASHUVLAR 156

Tojiyev Jo'rabek Muxtorovich

JINOYAT PROTSESSIDA VOYAGA YETMAGANLAR ISHTIROKIDA PEDAGOG VA

PSIXOLOGNING PROTSESSUAL MAQOMI HAMDA FUNKSIYALARI 170

Nasriyeva Dilnoza Narzulloyevna

AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN EKSTREMIZM BILAN BOG'LIQ

JINOYATLAR TUSHUNCHASI, UNING IJTIMOIIY XAVFLILIGI 182



СОДЕРЖАНИЕ

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

Хакимов Комил Бахтиярович

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УГОЛОВНОЙ
ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НЕЗАКОННЫЙ ОБОРОТ НАРКОТИЧЕСКИХ
СРЕДСТВ ИЛИ ИХ АНАЛОГОВ11

Абзалова Хуршида Мирзиятовна

ЭВТАНАЗИЯ В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН:
СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ, НРАВСТВЕННЫЕ И УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ
АСПЕКТЫ21

Худайкулов Ферузбек Хуррамович

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИЧИННОЙ СВЯЗИ
В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ30

Фазилов Фарход Маратович

УГОЛОВНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ СУБЪЕКТИВНЫХ ПРИЗНАКОВ
ПРЕСТУПЛЕНИЯ ЛЕГАЛИЗАЦИИ (ОТМЫВАНИЯ) ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ44

Каракетова Дилноза Юлдашевна

ЮРИДИЧЕСКИЕ ЛИЦА КАК СУБЪЕКТЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ57

Матвиенко Ирина Александровна, АллахРакха Наим

ПРАВОВАЯ НЕВИДИМОСТЬ КИБЕРПРЕСЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ:
АНАЛИЗ СУДЕБНЫХ РЕШЕНИЙ69

Жуманиязова Зарнигор Махаммади кизи

ЭВОЛЮЦИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ТОРГОВЛЮ ЛЮДЬМИ
В УГОЛОВНОМ КОДЕКСЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН81

Утаев Хусниддин Хуррамович

УГОЛОВНО-ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА УМЫСЛА, МОТИВА И
СУБЪЕКТА ПРЕСТУПЛЕНИЯ ПРИ ЦИФРОВОМ МОШЕННИЧЕСТВЕ92

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

Мамадалиев Умид Юлдашевич

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ И
РЕАЛИЗАЦИИ ИНСТИТУТА ЭКСТРАДИЦИИ В УГОЛОВНОМ
ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН 101

Каримов Абдумалик Абдумутал угли

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ
ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЯМ ЭКСТРЕМИСТСКОЙ
НАПРАВЛЕННОСТИ СРЕДИ МОЛОДЁЖИ

110

Фатуллаев Шодмонбек Мадатович

ПОРЯДОК НАЗНАЧЕНИЯ ЭКСПЕРТИЗЫ ПО УГОЛОВНОМУ ДЕЛУ И
ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К НЕЙ

119

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

Мусаев Джамалиддин Камалович

МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО КАК ОСНОВА ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ
НЕЗАКОННОМУ ОБОРОТУ НАРКОТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

133

12.00.15 – КРИМИНОЛОГИЯ

Абдурасулова Кумриниса Раимкуловна, Давранов Хусниддин Бахранович

ПРИЧИНЫ СОВЕРШЕНИЯ КОРРУПЦИОННЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ
СОТРУДНИКАМИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ И СПОСОБСТВУЮЩИЕ
ИМ УСЛОВИЯ

144

Ниёзова Саломат Сапаровна

НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ПРИЧИНАМ СУИЦИДА И УСЛОВИЯМ,
СПОСОБСТВУЮЩИМ ЕГО СОВЕРШЕНИЮ

156

Тожиев Журабек Мухторович

ПРОЦЕССУАЛЬНЫЙ СТАТУС И ФУНКЦИИ ПЕДАГОГА И ПСИХОЛОГА
В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ С УЧАСТИЕМ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

170

Насриева Дилноза Нарзуллоевна

ПОНЯТИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ЭКСТРЕМИСТСКОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ,
СОВЕРШАЕМЫХ ЖЕНЩИНАМИ, И ИХ ОБЩЕСТВЕННАЯ ОПАСНОСТЬ

182



CONTENTS

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

Hakimov Komil Bakhtiyarovich

SOME ISSUES OF IMPROVING CRIMINAL LIABILITY FOR THE ILLICIT
TRAFFICKING OF NARCOTIC DRUGS OR THEIR ANALOGUES11

Abzalova Khurshida Mirziyotovna

EUTHANASIA IN THE CRIMINAL LAW OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN:
SOCIO-LEGAL, MORAL AND CRIMINAL-LAW ASPECTS21

Khudaykulov Feruzbek Khurramovich

THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF CAUSABILITY IN CRIMINAL LAW30

Fazilov Farkhod Maratovich

CRIMINAL-LEGAL ANALYSIS OF SUBJECTIVE CHARACTERISTICS
OF THE CRIME OF LAUNCHING (MONEY LAUNDERING)44

Karaketova Dilnoza Yuldashevna

LEGAL ENTITIES AS SUBJECTS OF CRIME57

Matvienko Irina Aleksandrovna, AllahRakha Naeem

THE LEGAL INVISIBILITY OF CYBERSTALKING IN UZBEKISTAN:
AN ANALYSIS OF JUDICIAL DECISIONS69

Jumaniyozova Zarnigor Makhmadi kizi

EVOLUTION OF LIABILITY FOR HUMAN TRAFFICKING IN THE CRIMINAL
CODE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN81

Utaev Husniddin Khurramovich

CRIMINAL LAW CHARACTERISTICS OF INTENT, MOTIVE,
AND THE OFFENDER IN DIGITAL FRAUD92

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

Mamadaliev Umid Yuldashevich

MODERN ISSUES OF LEGAL REGULATION AND IMPLEMENTATION
OF THE EXTRADITION INSTITUTION IN THE CRIMINAL PROCESS
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 101

Karimov Abdumalik Abdumutal ugli

EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE DEVELOPMENT
OF CRIMINALISTIC METHODS OF COMBATING CRIMES RELATED
TO EXTREMISM AMONG YOUNG PEOPLE 110

Fatullaev Shodmonbek Madatovich

PROCEDURE FOR APPOINTING FORENSIC EXAMINATION IN CRIMINAL PROCEEDINGS AND PROCEDURAL REQUIREMENTS	119
--	-----

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

Musaev Djamaliddin Kamalovich

INTERNATIONAL COOPERATION AS THE FOUNDATION FOR COMBATING ILLICIT DRUG TRAFFICKING	133
---	-----

12.00.15 – CRIMINOLOGY

Abdurasulova Kumrinisa Raimkulovna, Davranov Khusniddin Bakhranovich

REASONS FOR THE COMMISSION OF CORRUPTION CRIMES BY EMPLOYEES OF INTERNAL AFFAIRS BODIES AND THE CONDITIONS THAT ENABLED THEM	144
---	-----

Niyozova Salomat Saparovna

SCIENTIFIC APPROACHES TO THE CAUSES OF SUICIDE AND THE CONDITIONS CONTRIBUTING TO ITS COMMISSION	156
---	-----

Tojiev Jurabek Mukhtorovich

PROCEDURAL STATUS AND FUNCTIONS OF A PEDAGOGUE AND A PSYCHOLOGIST IN CRIMINAL PROCEEDINGS INVOLVING MINORS	170
---	-----

Nasrieva Dilnoza Narzullaevna

THE CONCEPT OF CRIMES RELATED TO EXTREMISM COMMITTED BY WOMEN, ITS SOCIAL DANGER	182
---	-----

Kelib tushgan / Получено / Received: 04.05.2026
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 05.06.2026
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 18.06.2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.ccj.6.2./CUOT6102>

UDC: 343.3/.7(045)(575.1)

YOSHLAR ORASIDA EKSTREMIZM BILAN BOG'LIQ JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHNING KRIMINALISTIK USULLARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Karimov Abdumalik Abdumutal o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-0997-7964>

e-mail: ocean7707@mail.ru

Anotatsiya. Mazkur maqolada ekstremizm tushunchalari va qonunchilikdagi javobgarlik masalalari, huquqbuzarliklar, xorij davlatlarning ilgor tajribalari aks etgan, jumladan, aksariyat xorijiy mamlakatlarda tahlil etilayotgan jinoyat turlari “diniy ekstremizm” deya belgilanmagan bo‘lib, “jamoat tartibini buzuvchi xatti-harakatlar”, “ekstremistik faoliyat”, “ekstremizm”, “radikalizm” va shu kabi boshqa nomlar bilan jinoyat yoki huquqbuzarliklar qayd etilgan. Shu bilan birga, xalqaro qonun hujjatlari va xorijiy davlatlarning qonun hujjatlarida ekstremizmning huquqiy ta'rifi turlicha keltirilganligini kuzatish mumkin.

Kalit so'zlar: terrorism, ekstremistik faoliyat, ekstremizm, radikalizm, jamiyat, xavfsizlik

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ КРИМИНАЛИСТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЯМ ЭКСТРЕМИСТСКОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ СРЕДИ МОЛОДЁЖИ

Каримов Абдумалик Абдумутал угли,
самостоятельный соискатель
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматриваются понятие экстремизма, вопросы ответственности, предусмотренной законодательством за экстремистскую деятельность, а также отдельные виды правонарушений и передовой зарубежный опыт противодействия экстремизму. В частности, отмечается, что в

законодательстве большинства зарубежных государств анализируемые виды преступлений, как правило, не обозначаются термином «религиозный экстремизм», а квалифицируются как «действия, нарушающие общественный порядок», «экстремистская деятельность», «экстремизм», «радикализм» и иные преступления или правонарушения. Вместе с тем установлено, что в международно-правовых актах и законодательстве зарубежных государств правовое определение экстремизма формулируется по-разному, что свидетельствует об отсутствии единого подхода к его нормативному закреплению.

Ключевые слова: терроризм, экстремистская деятельность, экстремизм, радикализм, общество, безопасность

EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE DEVELOPMENT OF CRIMINALISTIC METHODS OF COMBATING CRIMES RELATED TO EXTREMISM AMONG YOUNG PEOPLE

Karimov Abdumalik Abdumutal ugli,

Independent Researcher at the University of Public Safety
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article reflects the concepts of extremism and legal liability issues, offenses, and advanced experiences of foreign countries, including the fact that in most foreign countries the types of crimes analyzed are not defined as “religious extremism”, but crimes or offenses are recorded under other names such as “behavior that disrupts public order”, “extremist activities”, “extremism”, “radicalism” and the like. At the same time, it can be observed that the legal definition of extremism is presented differently in international legislation and the legislation of foreign countries.

Keywords: terrorism, extremist activity, extremism, radicalism, society, security

Kirish

Mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni ta’minlash, iqtisodiy barqarorlik va aholi turmush tarzining xavfsiz muhitini yaratish davlatning huquqiy va ijtimoiy sohadagi dolzarb hamda ustuvor yo’nalishlaridan sanaladi.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev: “Aholining turmush darajasi yaxshilanishi bilan birga ichki turizmga xavfsizlik tizimini kafolatlangan holda ta’minlash lozim. Zero, bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan nizo va beqaror vaziyatlar soha rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda”, – deya ta’kidlaydi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda tinchlik va xavfsiz sharoitning ta’minlanishi bevosita aholining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham ijobiy ta’sir o’tkazadi. Shu bois ekstremizmga oid aksariyat tadqiqot ishlarida xorij tajribasi tahlil qilinib, xavfsiz muhit yuqorida darajada ta’minlangan davlatlarning bu boradagi tajribasi tadqiq etilgan.

Asosiy qism

Ekstremizm bilan bog’liq jinoyatlarning tarqalganlik nuqtayi nazaridan nafaqat davlatlar miqyosida, balki xalqaro miqyosda unga qarshi kurashish, davlatlarning bu boradagi jinoiy-huquqiy siyosatida aniq me’yorlarni belgilash bo’yicha xalqaro hujjatlarda ham alohida bandlar aks etgan. Bunday xalqaro darajada konvensiyalarning qabul qilinishi “ekstremizm”,

“radikalizm” va “terrorizm” tushunchalarining ijtimoiy xavfliligini namoyon etadi, sababi ekstremistik g'oyalar jamiyatda tartibsizliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlarda jamoat tartibini saqlash bir qancha huquqiy hujjatlar bilan ta'minlanadi. Misol uchun, Fransiyada jinoyat kodeksiga to'ldirish sifatida alohida qonun hujjati bilan nazarda tutilgan bo'lsa (Penal Code of France, 2002), Angliyada sud odatlari (statut) ekstremizmga qarshi kurashishning jinoiy huquqiy asosi hisoblanadi (Golovanova, 2017). AQShda ekstremistik faoliyat shtatlarning qonunosti hujjatlari asosida taqiqlangan. Germaniyada jamoat tartibini izdan chiqaruvchi faoliyat sifatida ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa (Bedzhanova, 2012), Gollandiya (Penal Code of the Netherlands, 2001), Tayland (Criminal Code of the Kingdom of Thailand, 2005), Ispaniya (Criminal Code of the Kingdom of Spain, 1995) va Shvetsiya (Criminal Code of the Kingdom of Sweden, 2001) kabi davlatlarda huquq oilalariga mos ravishda nafaqat jinoyat qonunchiligi yoki kodekslari, balki bu borada huquq odatlariga asoslangan boshqa qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, ekstremizm bilan bog'liq jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan milliy jinoyat qonunchiligimizga o'xshash normalar MDHga a'zo davlatlarning qonunchiligida ham qayd etilgan. Jumladan, Turkmaniston (Criminal Code of Turkmenistan, 1997), Armaniston (Criminal Code of the Republic of Armenia, 2003), Ukraina (Criminal Code of Ukraine, 2001) va Moldova (Criminal Code of the Republic of Moldova, 2003) kabi davlatlarda ekstremizmning aniq ma'muriy va jinoiy javobgarlik turlari kodekslarda alohida belgilab qo'yilgan. Biroq farqli jihati sifatida milliy qonunchiligimizda belgilangani kabi faqatgina diniy ekstremizm jinoiy ta'qibga olinmagan, ya'ni bunda ekstremizmning har qanday turi (etnik, siyosiy, diniy) uchun javobgarlik bir xil ahamiyat kasb etadi.

Aksariyat xorijiy mamlakatlarda tahlil etilayotgan jinoyat turlari “diniy ekstremizm” deya belgilanmagan bo'lib, bunda “jamoat tartibini buzuvchi xatti-harakatlar”, “ekstremistik faoliyat”, “ekstremizm”, “radikalizm” va shu kabi boshqa nomlar bilan jinoyat yoki huquqbuzarliklar qayd etilgan.

Maqolada diniy ekstremizm bu – ekstremistik faoliyatning turidan biri ekanligini tahlil qilingan. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida faqatgina diniy ekstremizmning o'zigina jinoiy-huquqiy taqiqlanishi tushunarsiz, vaholanki siyosiy yoki etnik ekstremizm xavfi ham diniy ekstremizm xavfidan kam emas. Bizningcha, Jinoyat kodeksida etnik yoki siyosiy ekstremizm sifatida alohida-alohida qaydlar amaliyotchilarni chalg'itishi mumkinligini inobatga olgan holda, umumiy nuqtayi nazardan ekstremistik faoliyat sifatida yoki ekstremistik tashkilotlar sifatida qaydlarni qayta shakllantirish lozim.

Rossiya Federatsiyasi jinoyat kodeksining 280-, 282.1-, 282.4-moddalarida ham ushbu faoliyat aynan diniy ekstremistik faoliyat sifatida ko'rsatilmagan, ya'ni har bir modda ekstremistik faoliyat sifatida barcha turdagi faoliyatni o'zida qamrab oladi (The Criminal Code of the Russian Federation, 1996).

Bundan tashqari MDHga a'zo ko'plab davlatlar, xususan, Qozog'iston Respublikasi (Criminal Code of the Republic of Kazakhstan, 2022), Qirg'iz Respublikasi (Criminal Code of the Kyrgyz Republic, 2017), Belarus (Criminal Code of the Republic of Belarus, 1999) yoki Ozarbayjon Respublikasi (Criminal Code of the Republic of Azerbaijan, 1999) da ham ekstremistik faoliyatning ayni qaysidir turi uchun javobgarlik alohida ko'rsatilmagan.

Shuningdek ekstremizmni moliyalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi tahlil qilinganida Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qozog'iston, Fransiya va boshqa davlatlarda mazkur toifadagi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.



Shu bilan birga, xalqaro qonun hujjatlari va xorijiy davlatlarning qonun hujjatlarida ekstremizmning huquqiy ta'rfi turlicha keltirilganligini kuzatish mumkin.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar tomonidan qabul qilingan "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Shanxay konvensiyasining 1-moddasida: "Ekstremizm – hokimiyatni zo'rlik bilan egallash yoki ushlab turish, davlatning konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirish, shuningdek, jamoat xavfsizligiga zo'rlik bilan tajovuz qilish, shu jumladan, noqonuniy qurolli tuzilmalarda yuqorida ko'rsatilgan tashkilot yoki ularda ishtirok etish hamda tomonlar milliy qonunchiligiga muvofiq jinoiy tartibda taqib qilinadigan biror bir qilmish", – deya ta'riflangan (Agreement on Cooperation in Combating Terrorism, Separatism and Extremism, 2001).

Mustaqil davlatlar hamdo'stligida esa, ekstremizm – ijtimoiy xulq-atvorning huquqiy va (yoki) boshqa umumiy qabul qilingan normalari va qoidalarini rad etish natijasida amalga oshiriladigan konstitutsiyaviy tuzum asoslari va davlat xavfsizligiga tajovuz qilish, shuningdek, inson va fuqaroning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzish sifatida qabul qilingan.

Amerika Qo'shma Shtatlari qonunchiligiga ko'ra, AQSh Federal tergov byurosi tomonidan: "Ekstremizm – siyosiy, mafkuraviy, diniy, ijtimoiy yoki iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlik harakatini rag'batlantirish, ma'qullash, oqlash yoki qo'llab-quvvatlash", deya ta'riflangan. Shuningdek, USAID tomonidan: "Zo'ravon ekstremistik faoliyat – ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy maqsadlarga erishishga ko'maklashish uchun g'oyaviy yoki harakatli zo'ravonlikni targ'ib qilish, ishtirok etish, tayyorlash yoki qo'llab-quvvatlashning boshqa shakli", – deb ta'rif berilgan.

Birlashgan Qirollikda (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya) ekstremizm – asosiy qadriyatlarga (bayonot va harakatlarga), shu jumladan, demokratiya, qonun ustuvorligi, shaxs erkinligi hamda turli din va e'tiqodlarga nisbatan o'zaro hurmat va bag'rikenglik qadriyatlariga qarshi turish, shuningdek, Qurolli Kuchlarni o'ldirishga chaqiriq sifatida ko'riladi.

Kanada qonunchiligiga ko'ra, zo'ravon ekstremizm – asosan o'ta siyosiy, diniy yoki mafkuraviy qarashlarga asoslangan holda sodir etilgan jinoyatlardir. Radikal qarashlar bu xavf emas, balki ular faqat zo'ravonlik harakatlarga o'tishi bilan milliy xavfsizlikka tahdidga aylanadi.

Avstraliya qonunchiligiga ko'ra, zo'ravon ekstremizm – mafkuraviy, diniy yoki siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlikni qo'llab-quvvatlaydigan yoki ishlatadigan odamlarning e'tiqodlari va harakatlaridir. Bunga terrorizm, siyosiy sabablarga ko'ra va jamoaviy zo'ravonlikning boshqa shakllari kiradi. Zo'ravon ekstremizmning barcha shakllari tinch yo'l bilan emas, balki qo'rquv va qo'rqitish orqali o'zgarishlarga intiladi. Agar biror shaxs yoki guruh qo'rquv, terror va zo'ravonlikni mafkuraviy, siyosiy yoki ijtimoiy o'zgarishlarga erishish uchun asosli deb hisoblasa va shunga muvofiq harakat qilsa, bu zo'ravon ekstremizmdir.

Norvegiya qonunchiligiga ko'ra, zo'ravon ekstremizm – bu siyosiy, mafkuraviy yoki diniy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlikdan foydalanishni istovchi shaxslar yoki guruhlarining faoliyati.

Shvetsiya milliy qonunchiligida zo'ravon ekstremist – nafaqat zo'ravonlik ishlatishga imkon beradigan, balki har qanday maqsadni ilgari surish uchun mafkuraviy zo'ravonlikni qo'llab-quvvatlaydigan yoki foydalanadigan xatti-harakatlarni bir necha bor namoyish etgan shaxs deya ta'riflangan.

Germaniya qonunchiligida “ekstremizm” tushunchasining ta’rifi mavjud emas, ekstremistik qarashlar uchun fuqarolar javobgarlikka tortilmaydi. Faqat zo’ravonlikni qo’llash, neofashistik targ’ibotni o’z ichiga olgan materiallarni tarqatish va moddiy zarar yetkazish kabi aniq harakatlar jinoyat hisoblanadi. Shuningdek, ushbu harakatlar ekstremistik harakatlar hisoblanadi.

Shvetsiyada jinoyat kodeksiga muvofiq, ommaviy diniy xizmat yoki boshqa ommaviy diniy bayram, to’y, dafn marosimi yoki shunga o’xshash marosim, sud majlisi yoki boshqa davlat yoki mahalliy vazifalarni muhokama qilish, o’qitish yoki ma’ruza tinglash uchun ommaviy yig’ilishga xalaqit berish uchun jinoyiy javobgarlik belgilangan.

Yuqoridagilardan ma’lum bo’ladiki, xorijda qilmishni ekstremistik faoliyat sifatida baholash uchun ushbu qilmish ommaga zararli va zo’ravonlik xususiyatini o’zida aks ettirishi kifoya hisoblanadi. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda sodir etilayotgan turli xil ekstremistik mazmundagi materiallar nafaqat aniq bir shaxsning, balki ma’lum bir jamiyatning qatlami yoki ushbu tarmoqdagi ommaga nisbatan ham sodir etilishi mumkinligi ko’rsatadi.

2007-yil AQSHda dunyoga mashhur bo’lgan *MySpace*, *Facebook*, *Youtube* singari ijtimoiy tarmoqlarda zo’ravon ekstremizmga qarshi kurashish tadbirlari doirasida shunday propagandani amalga oshiruvchi kanallarni bloklash kampaniyalari tashkil etilgan.

Rossiya Federatsiyasi jinoyat kodeksining 280-, 282.1-, 282.4-moddalarida ekstremizm uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo’lib, bunda uning barcha turlari qamrab olinadi. Rossiya Federatsiyasida ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning o’zgacharoq, biroz keskinroq usullari paketi yoki davlat dasturi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan bo’lib, uni “*Пакет Яровой*” deb nomlashgan (The Criminal Code of the Russian Federation, 1996). Dasturning bunday nomlanishiga sabab uning g’oyaviy asoschisi mamlakat parlamenti deputati Irina Yarovayaning nomi berilganligidir.

Yarovaya paketi (shuningdek, Yarovaya qonuni) tuzatishlar paketining norasmiy nomi, uning bir qismi barcha rus foydalanuvchilarining yozishmalarini, telefon qo’ng’iroqlarini va chiquvchi trafigini saqlashni, shuningdek, maxsus xizmatlarning talabiga binoan ushbu ma’lumotlarni taqdim etishni talab qiladi. Mazkur paketga asosan Rossiya Federatsiyasining bir qancha qonunlariga, shu jumladan, jinoyat kodeksiga tegishli o’zgartirish va qo’shimchalar kiritilgan.

Xususan, jinoyat kodeksiga yangi jinoyat turlari “terrorchilik, qurolli isyon va boshqa terrorchilik jinoyatlarini tayyorlash to’g’risida xabar bermaslik”, “internetda terrorizmni oqlash” – ijtimoiy tarmoqlardagi yozuvlar ommaviy axborot vositalaridagi nashrlarga tenglashtirildi va xalqaro terrorizm aktini sodir etish yoki tahdid qilish – Rossiya fuqarolari xorijiy teraktda jarohat olgan hollarda jinoyat sifatida belgilab qo’yildi.

Ekstremizmga qarshi kurashishdagi mazkur davlat chorasini uyali aloqa kompaniyalari va internet xizmati ko’rsatuvchi kompaniyalarga ham bir qancha majburiyatlarni qo’ydi.

Xususan, 2018-yil iyul oyidan boshlab uyali aloqa operatorlari va internet kompaniyalari barcha foydalanuvchilarning internet trafigini, shu jumladan, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar va elektron pochta xabarlarini, qo’ng’iroqlarning audio yozuvlarini 6 oygacha saqlashlari shart bo’ldi. Shuningdek, qonun bilan ushbu kompaniyalarga 3 yil davomida *metadata* fayllar (kimga va qachon qo’ng’iroq qilgani yoki yuborganligi to’g’risidagi ma’lumotlar) ni saqlash talab qilinadi. Mazkur ma’lumotlarni huquqni muhofaza qilish organlari so’rov bo’yicha olishi mumkin hisoblanadi. Ushbu davlat dasturi juda keng qamrovli nazorat tadbirlarini o’z ichiga olib, yoshlar orasida ekstremistik faoliyatning oldini olishda bir



qancha cheklovlar kiritildi. Jumladan, diniy mazmundagi da'vatlar, chaqiriqlar va boshqa har qanday materiallarni faqatgina davlat ro'yxatidan o'tgan diniy tashkilotlar va shaxslar tomonidan amalga oshirilishiga ruxsat berildi, qolgan barcha shaxslar yoki guruhlariga bunday ma'lumotlarni ishlab chiqish yoki tarqatish taqiqlandi. Bundan tashqari mamlakat pochta va barcha xususiy yetkazib berish xizmati kompaniyalariga taqiqlangan buyumlar (qurol, pul, giyohvandlik vositalari va shu kabilar) ni tekshirish majburiyati yuklandi.

Rossiya Federatsiyasi Jamoatchilik palatasi tomonidan ID (Islom davlati) terrorchilik tashkilotining yollovchilariga qarshi kurashish maqsadida 2015-yil 1-avgustda ishonch telefoni tashkil etilgan. Fuqarolar o'zlariga, farzandlariga, qarindoshlari va tanishlariga nisbatan yoki ular yashaydigan hududda "Islom davlati" emissarlari tomonidan amalga oshirilayotgan yollash harakatlari to'g'risida ma'lumot berishi, shuningdek, ushbu murojaatni elektron tarzda yuborishi mumkin. Masalan, ishonch telefoniga Pavel Karaulov tomonidan qo'ng'iroq qilinib, uning 19 yoshli qizi Varvara Karaulova "Islom davlati" terrorchilik tashkilotiga qo'shilmoqchiligi to'g'risidagi ma'lumot natijasida u Turkiya va Suriya chegarasida qo'lga olinib, Rossiyaga qaytarilgan. RF Jamoatchilik palatasining ishonch telefoniga quyidagi holatlarda qo'ng'iroq qilish tavsiya qilinadi: 1) shaxsni destruktiv diniy tashkilotlar (sektalar) safiga yollash harakatlari to'g'risida; 2) ekstremistik tashkilotlarga yollash harakatlari to'g'risida; 3) ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar to'g'risida; 4) milliy yoki diniy belgilariga ko'ra diskriminatsiya holatlari to'g'risida; 5) inson huquq va erkinliklarining buzilishi to'g'risida xabar berish maqsadida. Bundan tashqari ekspertlarning ta'kidlashicha, DET (diniy ekstremistik tashkilot) ta'siriga tushgan shaxs qo'lga olinganda uni qamoqqa jo'natishdan ko'ra, malakali ruhshunos orqali uni hayotga qaytarish jamiyat uchun foydaliroqdir. Xususan, hozirgi kunda RFda yetakchi ruhshunos-tahlilchilar tomonidan internet saytlari orqali DET ta'sirini kamaytirish maqsadida onlayn tarzda test savollari ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur testdagi 20-30 tadan iborat savollarga javob berish orqali insonning targ'ibot ta'siriga tushib qolish ehtimolining darajasi aniqlanib, ruhiy jihatdan yordamga muhtoj shaxslarga onlayn tarzda (qanday qilib DET ta'siriga tushib qolmaslik, internetda aldanib qolmaslik haqida) maslahatlar berilmoqda.

Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning aksariyatida ekstremizmni moliyalashtirish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan bo'lsa, Yangi Zelandiya davlati birinchilardan bo'lib, ekstremizmni moliyalashtirish uchun jinoiy javobgarlik belgilagan. Bundan tashqari Janubiy Koreya va Fransiya davlatlarida ham ekstremizmni moliyalashtirish uchun javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda.

Jamiyatda kibermakon kabi tushunchalar paydo bo'lishi bilan undagi ommaning ham ma'naviy ham jismoniy xavfsizligini ta'minlash dolzarb sanaladi. Shu bois rivojlangan davlatlar kabi milliy qonunchiligimizda ham virtual maydonda sodir etiluvchi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilanishi ijtimoiy zarurat sanaladi. Zero ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va qonunchilik bilan to'ldirilishi lozim bo'lgan bo'shliqlarni to'ldirib borish lozim.

Bir qancha davlatlarda (AQSH, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar, BAA va boshqalarda) asosan yoshlarni ekstremistik tashkilotlar yoki ularning faoliyatiga jalb qilganlik holatlari kuzatilganligi sababli o'quvchilarga vahshiylik va shafqatsizlikning oldini olish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berib o'tiladi. Shu bilan birga, ishni ota-onalar tomonidan yollangan xususiy detektivlar tomonidan aniqlangan faktlar va hujjatlar yordamida qo'zg'atilishi mumkinligi e'tiborga sazovor jihat hisoblanadi. Bunda ishni tergov qilishda ota-onalar ishtiroki va asosan voyaga yetmaganlar yoki o'smirlar psixologiyasiga ta'sirni kamaytirish uchun birinchi navbatda – ushbu jinoyatdan jabrlangan shaxsni himoyaga

olish choralari ko'rishni, keyingi navbatda – butun tergov jarayonini kelgusida shu kabi holatlar takrorlanmasligi uchun ommaga oshkor qilishni belgilashgan. Ushbu tajriba ayrim jihatlari ko'ra mamlakatimizga implementatsiya qilishni rad etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 146-moddasiga muvofiq, yurtimizda xususiy detektivlik va shunga o'xshash izquvarlik turlari taqiqlangan va ushbu faoliyat faqatgina davlat organlari tomonidan amalga oshirilishi qayd etilgan (The Constitution of the Republic of Uzbekistan, 1992). Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi. Biroq tergov jarayoni va jinoyatning salbiy oqibatlari borasida axborotlarni ommaga ma'lum qilib borish ushbu turdagi jinoyatlarning profilaktikasida samarali hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilish bilan bog'liq ilg'or texnologiyalar yordamidan faol foydalaniladi. Sababi ushbu turdagi jinoyatlar subyekti sifatida yoshlar (o'smirlar) jalb etilish hollari ko'plab uchramoqda. Tergov qilishda eng muhim bo'lgan so'roq qilish harakati yolg'on detektor yordamida amalga oshiriladi. Ushbu so'roq qilish uslubi juda samarali bo'lib, milliy qonunchiligimizda ekstremistik mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadini ko'zlab saqlaganlik holatlarini fosh etishda qo'l keladi, shuningdek, jinoyat sodir etgan o'smirlarning bu jarayondagi psixofiziologik jihatlari ish bo'yicha haqqoniy ko'rsatmalar olinishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa politsiya tomonidan sudga qadar bosqichda va sud bosqichida so'roqning ushbu turi keng qamrovli foydalaniladi. Biroq bu jarayonlarda detektorning natijalaridan olingan ko'rsatkich sudda qo'shimcha dalillarsiz inobatga olinmaydi.

AQSH va Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning aksariyatida ovozli imzo kabi ekspertiza tadqiqot usullaridan foydalanilishi ham e'tiborga sazovor. Xususan, bunda mamlakatda istiqomat qilayotgan barcha shaxslarning ovozlari va ularning tovushlaridagi o'ziga xosliklar bazasi shakllantirib borilmoqda. Aksariyat hollarda ekstremistik mazmundagi targ'ibot tadbirlarini ochiq-oshkora ravishda ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilish holatlari, shaxsni tanib olish imkonini bermaydigan turli xildagi niqoblangan holda ko'cha yurishlari, tinch namoyishlar nomi ostida jinoyatchi shaxslar yuzlarida niqob kiygan holda ommaviy yoki irqiy kamsitish tarzida amalga oshirilishini inobatga olgan holda ovozlarning yozib olinishi yoki kuzatuv kameralari ovozli yozuvlaridan unumli foydalanish ko'zda tutiladi. Shu bilan birga, fotografiya, mikrofotografiya va yangi avlod ballistik ekspertizalari ushbu turdagi jinoyatlarni fosh etishda qo'llanib kelinmoqda.

Shuningdek, AQSHda jinoyatlarni tergov qilishda so'roq qilishning 5 taktikasi deb nomlangan o'ziga xos turi tavsiya etilishi bilan boshqa xorijiy mamlakatlarning tergov uslublaridan farq qiladi. Lui K. Seneze bu borada tadqiqotlar o'tkazib, unda jinoyat sodir etgan shaxs bilan psixologik kontakt yo'lga qo'yish maqsadida so'roq qilishning 5 usuli ketma-ketlikda amalga oshirilishini ta'kidlaydi. Jumladan, dastlab shaxs bilan bevosita ishonchli kontaktni amalga oshirish uchun ishga aloqasi bo'lmagan hamda unga nisbatan xavfsiz va ishonchli muhitni yaratuvchi savollar beriladi. Misol uchun, "xato qilishda hech kim xoli emas, fikrimga qo'shilasizmi?", "sizga savol bersam maylimi?" va hokazo. Shu tariqa ovoz ohangini sekinlashtirish (2-usul), gumon qilinuvchi bilan masofani qisqartirish orqali unga ta'sir o'tkazish (3-usul), so'roq masalasini ixchamlashtirish (4-usul) va shaxsning ismi bilan murojaat qilish va ko'z bilan aloqani yo'lga qo'yish (5-usul) bilan so'roq qilish samarador bo'lishini ta'kidlaydi.



Buyuk Britaniya kriminalistikasining boshqa mamlakatlar amaliyotiga o'xshamaydigan o'ziga xos jihati mavjud: unda raqamli vositalar bilan bog'liq tadqiqotlar bevosita ekspertlar tomonidan o'tkaziladi va tayinlangan ekspertiza savollarini ham ekspertlarning o'zlari belgilaydilar. Shu bilan birga, ushbu savollarning qo'yilishi va ketma-ketligini bevosita ishga mas'ul bo'lgan tergovchi yoki prokuror bilan kelishadi. Haqiqatan ham raqamli vositalardan tadqiqotga yaroqli dalillarni olish jarayonida ekspert ushbu dalil bo'yicha gumon qilinuvchi jinoyatga doir qanday ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkinligi borasida shu zahoti tasavvurga ega bo'ladi va ishni ko'rib chiqayotgan tergovchi hamda surishtiruvchiga nisbatan zaruriy savollar nimalardan iborat bo'lishi mumkinligini anglaydi.

O'rganilgan barcha davlatlarning kriminalistik tajribasida umumiy, biroq mamlakatimiz tergov-surishtiruv tizimida jinoyat ishini tergov qilishda kamyob uchraydigan yana bir holat bu jinoyat ishi bo'yicha jinoiy aloqa va ishga doir "dalillar sxemasi" hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar tomonidan guruh tarkibida sodir etilgan diniy ekstremistik faoliyat bilan bog'liq jinoyatlarda dastlab berilgan ko'rsatmalar keyinchalik surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida o'zgarishi oqibatida bir qancha faktlar ko'zdan qochadi va faqat protsess ishtirokchilarining ko'rsatmalari hal etuvchi ahamiyatga ega dalil sifatida saqlanib qoladi.


Xulosa

Xulosa qilib aytganda aksariyat xorijiy mamlakatlarda tahlil etilayotgan jinoyat turlari "diniy ekstremizm" deya belgilanmagan bo'lib, umumiy ekstremizm uchun javobgarlik belgilangan. Diniy ekstremizm – ekstremistik faoliyatning bir turi ekanligi bois O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida etnik yoki siyosiy ekstremizm sifatida alohida-alohida qaydlar amaliyotchilarni chalg'itishi mumkinligini inobatga olgan holda, umumiy nuqtayi nazardan ekstremistik faoliyat sifatida yoki ekstremistik tashkilotlar sifatida qaydlarni qayta shakllantirish lozim.

REFERENCES

1. Agreement on Cooperation in Combating Terrorism, Separatism and Extremism (Shanghai Convention). (2001, June 15). <https://lex.uz/docs/2066680>
2. Bedzhanova, T. E. (2012). Countering extremism in Germany: Legislative regulation and interaction of authorities. *Legal Bulletin of Dagestan State University*, (4), 45.
3. Criminal Code of the Republic of Belarus No. 275-Z. (1999, July 9).
4. Criminal Code of the Republic of Kazakhstan. (2022). Amended as of September 3, 2022. <https://online.zakon.kz/>
5. Criminal Code of the Republic of Moldova. (2003). (pp. 332–333). Juridicheskiy Tsentr Press.
6. Criminal Code of Turkmenistan No. 222-I. (1997, June 12).
7. Criminal Code of Ukraine. (2001). (p. 257). Juridicheskiy Tsentr Press.
8. Golovanova, N. A. (2017). *Criminal law of England: A textbook for undergraduate and graduate studies*. Yurayt.
9. International Convention on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination. (1966, March 7). Legal Reference System "Garant".
10. Penal Code of France. (2002). (pp. 369–370). Juridicheskiy Tsentr Press.

11. Criminal Code of the Republic of Azerbaijan No. 787-IQ. (1999, December 30). Amended as of June 22, 2022.
12. Criminal Code of the Kyrgyz Republic No. 19. (2017, February 2). <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/111527>
13. Criminal Code of the Kingdom of Thailand. (2005). Juridicheskiy Tsentr Press.
14. Criminal Code of the Kingdom of Spain. (1995). <http://www.crimpravo.ru/page/zar-uk>
15. Criminal Code of the Kingdom of Sweden. (2001). (N. F. Kuznetsova & S. S. Belyaev, Eds.; S. S. Belyaev, Trans.). Juridicheskiy Tsentr Press.
16. Penal Code of the Netherlands. (2001). (B. V. Volzhenkin, Ed.; I. V. Mironova, Trans.; 2nd ed.). Juridicheskiy Tsentr Press.
17. The Constitution of the Republic of Uzbekistan. (1992). <https://lex.uz/docs/6445145>
18. The Criminal Code of the Russian Federation No. 63-FZ. (1996, June 13). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.2).